



KATTAQO'RG'ON TUMAN HOKIMI – FUQARO MUHOFAZASI BOSHLIG'INING BUYRUG'I

27 may 2024 yil.

03-03/5-son

Samarqand viloyat hokimining 2024-yil 15-maydag'i 01-03/4-sonli “Samarqand viloyati hududida 2024-yilning yoz mavsumida suv havzalarida fuqarolar xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi buyrug'i haqida

Kattaqo'rg'on tumanida o'tgan yillar davomida, yoz mavsumida fuqarolar o'rtaida suvda cho'kish bilan bog'liq baxtsiz xodisalarni oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, fuqarolarning suvda cho'kib vafot etish holatlari yuzaga kelmoqda.

Ma'lumotlar tahliliga ko'ra so'nggi 3 yilda, ya'ni **2021-yildan 2024-yilning** (2021 – 3 ta holatda 3 nafar fuqarolar, 2022 – 1 ta holatda 1 nafar, 2023 – 2 ta holatda 2 nafar) joriy kuniga qadar Kattaqo'rg'on tumanida **jami 6 ta** holatlarda, **jami 6 nafar** fuqarolarning **suvda cho'kib halok bo'lishlari** bilan bog'liq salbiy holatlar kuzatildi.

Suv havzalari kesimidagi holatlar asosan Narpay kanalida (**2 ta**), Kattaqo'rg'on chiqish kanalida (**2 ta**), Kattaqo'rg'on suv ombori (**2 ta**) sodir bo'lmoqda.

Eng achinarlisi, suvda cho'kkani **18-30 yoshgacha** bo'lgan o'smir yoshidagilar 4 nafarni, **35-50 yoshgacha** bo'lgan katta yoshdagilar 2 nafarni **tashkil qilmoqda**.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tuman hududida fuqarolarni suvda cho'kishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bu borada profilaktik tadbirlar samaradorligini yanada kuchaytirish hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 20-maydag'i “O'zbekiston Respublikasi akvatoriyalarining plyaj zonalarida dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 164-tonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. Samarqand viloyat hokimining 2024-yil 15-maydag'i 01-03/4-sonli “Samarqand viloyati hududida 2024-yilning yoz mavsumida suv havzalarida fuqarolar xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi buyrug'i ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoz mavsumida cho'milish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarni oldini olish va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, tuman miqyosida kuchaytirilgan profilaktik va targ'ibot tadbirlari olib borilsin.

3. Tuman hududidagi ochiq va yopiq suv havzalari, dam olish maskanlarida fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasidagi shartlarni ta'minlashga qaratilsin.

1-ilovaga, suv havzalari va dam olish maskanlari plyaj zonalarida (qo'riqlanadigan) fuqarolarning cho'milish jarayonida xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qutqaruv asbob-anjomlarining ro'yxati **2-ilovaga** hamda tuman hududidan oqib o'tuvchi daryo va kanallarda yoz mavsumida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, tuman Suv yetqazib berish DM, tuman Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar bo'limi bilan hamkorlikda navbatchilik, nazorat va kuzatuv targ'ibot postlari tashkil etiladigan xavfli hududlar ro'yxati **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (E.Raximov), Ichki ishlar bo'limi (A.Ochilov), Favqulodda vaziyatlar bo'limi (I.Amanov), Kattaqo'rg'on shaharlararo qo'riqlash bo'limi (B.Bozorov), tuman Suv yetqazib berish DM (L.Turdiyev) va Yoshlar ishlari tuman bo'limi (L.Abduqaxxorov) bilan hamkorlikda:

'on kun muddatda, daryo, kanallar, anhorlar va qo'riqlanmaydigan, qarovsiz suv havzalarida aholi tomonidan cho'milishi doimiy odat bo'lib qolgan va ilgari cho'kish bilan bog'liq baxtsiz hodisalar yuz bergan hududlarga, aniq ko'rindigan joylarga **"CHO'MILISH QAT'IY TAQIQLANADI!"** ta'qiqlovchi belgilarni o'rnatilishi ta'minlansin;

1-iyun kunidan mazkur hududlarda cho'kish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarni oldini olish maqsadida, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, tuman Suv yetqazib berish DM, tuman Ichki ishlar bo'limi, Favqulodda vaziyatlar bo'limi Milliy gvardiya bo'limlari bilan hamkorlikda navbatchilik, nazorat va kuzatuv targ'ibot postlari tashkil etilsin (3-ilovaga muvofiq);

yoz mavsumida dam olish maskanlari sifatida aholining ommaviy ko'p to'planadigan va dam oladigan joylarida dam oluvchilarning extiyotsizligi oqibatida suvga cho'kib ketish holatlarini oldini olish maqsadida, dam oluvchilarga vaqtinchalijra joy beruvchi mahalliy aholi (yakka tartibdagi tadbirkorlar) tomonidan daryo va soylarning qirg'oqlariga sun'iy to'siglar o'rnatilishini ta'minlash va buni nazorat qilishni joylardagi profilaktika inspektorlariga yuklatish;

suvda cho'kish holatlari kuzatilayotgan Kattaqo'rg'on suv ombori, "Narpay" va "Xatirchi" kanallari hamda "Oqdaryo", "Qoradaryo" daryolari va boshqa kanallarning qo'riqlash postlaridan tashqari fuqarolar cho'milishi mumkin bo'lgan boshqa hududlarida ham yoz mavsumi davomida qo'shimcha (Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'limi tomonidan qo'riqlanadigan toifalangan suv omchorlarida Milliy gvardiya xodimlaridan iborat) nazorat postlari tashkil etish va fuqarolarning cho'milishini oldini olish ishlari amalga oshirilsin.

5. Tuman hokimining o'rinosasi D.Ismoilov, Favqulodda vaziyatlar bo'limi (I.Amanov), Ichki ishlar bo'limi (A.Ochilov), tuman tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov), Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi (U.Sag'dullayev) hamda tuman hokimligiga:

ochiq va yopiq suv havzalarida, dam olish va cho'milish maskanlari **plyaj zonalarida** kuzatuv minoralari, qutqaruv qayiqlari, qutqaruv jiletlari, qutqaruv aylanasi

(spasatelniy krug), ovoz kuchaytirgich (megafon), svistok va binokl, g'avvoslik va qutqaruv asbob-anjomlari bilan ta'minlansin;

suv havzalari basseyn va plyaj zonalarida tibbiyot xodimining navbatchiligi tashkil etilsin, fuqarolarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha kerakli dori-darmonlar bilan ta'minlansin;

10-iyun kuniga qadar, tuman hududidagi mavjud ommaviy cho'milish joylarining (qo'riqlanadigan ko'l, plyaj zonalari, basseynlar, ochiq suv havzalari) mavsumga tayyorgarligi, ularning qo'riqlanishi, tibbiy va sanitariya-gigiyena talablariga mosligi, joylarda cho'kish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarni oldini olish bo'yicha aholiga aniq ko'rinaldigan joylarga taqiqlovchi belgilar o'rnatalganligi, dam oluvchi aholini qutqarishga ixtisoslashtirilgan tuzilmalarning tashkil etilganligi, xavfsizlik talablariga rioya etilishi o'rganib chiqilsin;

tuman hokimligi, ochiq va yopiq suv havzalari, dam olish maskanlari plyaj zonalari va basseynlar rahbarlari bilan birgalikda o'rganish davomida **aniqlangan kamchiliklarni** bartaraf etish choralar ko'rilsin va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat hokimligiga axborot berilsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov) mazkur buyruq mazmun-mohiyati mahalliy ommaviy axborot vositalari, davlat hokimiyati organlarining ijtimoy tarmoqlari sahifalari va veb saytlarida keng yoritilishi tavsiya etilsin.

7. Ushbu buyruq tuman hokiminining barcha sohalar bo'yicha o'rinnbosarlariga, bo'lim, tuman hokimligiga, iqtisodiyot obyektlari, o'quv va davolash muassasalari, idora va tashkilotlarga yetkazilsin hamda joylarda ichki buyruqlar ishlab chiqilib, buyruq nusxasi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar o'rnatalgan tartibda tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limiga taqdim etilsin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish tuman hokiminining o'rinnbosari D.Ismoilov va tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i I.Amanovlar zimmasiga yuklatilsin.

**Kattaqo'rg'on tuman hokimi -
Fuqaro muhofazasi boshlig'i**



J.Nasriddinov